

## ISPAN VA INGLIZ TILLARIDAGI FRAZEOLOGIZMLARNING O'ZBEK TILIDAGI EKVIVALENTINI TOPISHDAGI MUAMMOLAR

Yo'ldosheva Laylo Chori qizi

O'zDJTU magistratura 1-kurs talabasi

layloyuldoweveva2506@gmail.com

Ilmiy rahbar: Xalillayev Adilbek Kurambayevich

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Ispan va ingliz tillaridagi o'xshash iboralar va ularning o'zbek tilidagi ekvivalentini topishdagi muammolar tahlil qilinadi. Bundan tashqari frazeologik konstruksiyalarni tarjima qilish jarayonida duch kelishi mumkin bo'lgan madaniy-tarixiy kontekst, leksik-semantik, majoziy va hissiy farqlar ko'rib chiqiladi.

**Kalit so'zlar:** Frazelogizm, ekvivalent, leksika, tasviriy tarjima, idioma, ibora, ma'no, kontekst, semantika, majoziy ma'no, konnotativ ma'no.

**Abstract:** This article analyzes similar expressions in Spanish and English and the problems of finding their equivalent in Uzbek. In addition, the cultural-historical context, lexical-semantic, figurative and emotional differences that may be encountered in the process of translating phraseological constructions are considered.

**Key words:** Phraseologism, equivalent, lexicon, figurative translation, idiom, phrase, meaning, context, semantics, figurative meaning, connotative meaning.

Frazeologizmlarni bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilish ko'pincha murakkab vazifa hisoblanadi, chunki bu turg'un bog'lanmalar o'zlarining kelib chiqish madaniyati, tarixi va ijtimoiy sharoitlarida chuqur ildiz otgan. Bu vazifa, ayniqsa, ispan, ingliz va o'zbek tillari kabi xilma-xil tillar bilan ishlashda yanada qiyinlashadi. Har bir tilda o'ziga xos idiomatik iboralar mavjud bo'lib, ularning boshqa tillarda to'g'ridan-to'g'ri ekvivalenti bo'lmasligi mumkin, bu esa aniq va mazmunli tarjimalarga erishishda jiddiy qiyinchiliklarga olib keladi. Ibora va maqollarning barchasi ushbu uch tilda ham mavjud bo'lsada, ularning ayni to'g'ri keladigan ekvivalentini topib olishimiz uchun bir necha faktorlarga e'tibor qaratishimizga to'g'ri keladi.

1. **Madaniy va tarixiy kontekst.** Frazelogizmlar ko'pincha o'ziga xos madaniy, tarixiy yoki ijtimoiy kontekstlarni aks ettiradi. Ispan va ingliz tilidagi idiomalar ham bundan mustasno emas, ular ko'pincha o'zbek tilida so'zlashuvchilar uchun notanish bo'lishi mumkin bo'lgan o'ziga xos madaniy manbalarga asoslanadi. Misol uchun, ispan tilidagi "estirar la pata" (chelakni tepmoq) va ingliz tilidagi "to kick the bucket" idiomasi ham ma'no ham struktura jihatidan bir hil "o'lmoq" deya tarjima qilinadi. Ammo ularning o'zbek tilida to'g'ridan-to'g'ri ekvivalenti yo'q va uni so'zma-so'z tarjima qilish mo'ljallangan ma'noni yo'qotib qo'yishga sabab bo'ladi. Ushbu iboraning 2 tilda kelib chiqish tarixi ham bir biridan farq qilmaydi. Iboraning kelib chiqishi haqida bir necha nazariyalar mavjud bo'lsada, ularni katoliklarning dafn marosimida ishlatiladigan muqaddas suv chelaklari yoki cho'chqa so'yishda foydalaniladigan chelakka ishora qiladi deya xulosa qilamiz. Iboraning o'zbek tilidagi ekvivalentiga keladigan bo'lsak, "olamdan o'tmoq", "jahondan o'tmoq" va "dunyodan o'tmoq" kabi bir necha misollarni keltirishimiz mumkin. Iboradan Sayfi Saroyi o'zining "Gulistoni

bit-turkiy” asarida keng foydalangan.

*“Ko’z yumib andin burunkim bu jahondan ketgaysan”;*

*“Gullarni qatinda qo’ymayin bir soat,*

*Ul kim uyumas edi, jahondan ketti”.*

2. **Til sistemasi.** Tillar orasidagi strukturaviy farqlar ham muammolarni keltirib chiqaradi. Ingliz va ispan tillarida ko'pincha o'zbek tilida bo'lmasligi mumkin bo'lgan o'ziga xos sintaktik qoliplarga asoslangan majoziy tildan foydalaniladi. . Bir tildagi idioma grammatik qoidalarga rioya qilmasligi yoki boshqa tilda mavjud so'zlarni ishlatmasligi mumkin. Bu to'g'ridan-to'g'ri ekvivalentni topishni qiyinlashtiradi. Masalan, ispan tilidagi “dar en el clavo” (tirnoqni urish) iborasi inglizcha “hit the nail on the head” bilan tizimli ravishda mos keladi, lekin o'zbek idiomalari orasida bunday aniq parallellik mavjud emas. Ushbu iboralar ispan va ingliz tilidan “ boshga mix bilan urmoq” deb tarjima qilinsada, aniq va to'g'ri javobni topishni bildiradi. O'zbek tilida ushbu iboraning ayni muqobili deyarli uchramaydi. Yana bir misol, ispan tilidagi “Echar leña al fuego” iborasining ingliz tilidagi ekvivalenti “ Add fuel to the fire” bo'lib, ham struktura jihatidan, ham so'zlardagi mano jihatidan bir biriga to'g'ri kelishi mumkin. Ammo O'zbek tilida ushbu iboraning ayni muqobilini topish mumkin emas. O'zbek tilida ushbu iboraga nisbatan yaqin deb “Yaraga tuz sepmoq” iborasini olamiz. Aynan ushbu iborani Oybekning “Tanlangan asarlar”ida uchratishimiz mumkin : “Bolam, shu mushtipar, shu baxtsiz onangning yarasiga tuz sepmasang, yurak-bag'rini qon qilmasang, dadang keltirgan xabarni aytaman”.
3. **Semantik maydonlar.** Semantik maydonlar - ma'lum bir so'z yoki ibora bilan bog'liq ma'nolar oralig'i - tillar orasida sezilarli darajada farq qilishi mumkin. Ispancha "meter la pata" iborasi, ya'ni qo'pol xato qilish yoki o'ylamay gapirib yuborish , tom ma'noda "panja qo'ymoq" deb tarjima qilinadi. Ingliz tilida shunga o'xshash ibora "put your foot in it" bo'lishi mumkin. Biroq o'zbek tilida unga o'xshash ibora oson topilmaydi. Tarjimon "qovun tushurmoq”, “rasvo qilmoq”, “xato qilmoq”kabilardan foydalanishi mumkin, ammo bunda asl iboralarning idiomatik mazasi yetishmay qoladi.
4. **Majoziy ma'no.** Idiomalar odatda tom ma'noda emas, balki ko'chma ma'noda bo'ladi. Idiomalarda ishlatiladigan tasvirlar ko'pincha til jamoasining madaniy va tarixiy tajribasi bilan bog'liq. Masalan, ingliz tilidagi “It is raining cats and dogs” iborasi o'zbek tilida kuchli yomg'ir yog'ayotganini anglatadi. Ushbu iboraning kelib chiqishi haqida bir necha nazariyalar mavjud bo'lib, ba'zilar bu ibora yunonchadan “ tajriba va ishonchga zid” ma'nosini beruvchi “cata doxa” iborasidan kelib chiqqan deya qarashsa, ba'zilar kuchli yomg'ir ko'chadagi o'lik it va mushuk qoldiqlarini yuvib ketadi deya ishonishgani uchun ishbu ibora paydo bo'lgan deb hisoblashadi. Bu iborani boshqa tilga to'g'ridan-to'g'ri tarjima qilish bu metafora bilan tanish bo'lmagan insonlarni chalkashtirib yuborishi mumkin. Ispan tiliga ushbu iborani to'gridan to'g'ri tarjima qilish mumkin emas. Ammo, ularda mavjud ekvivalent “llueve a cántaros” o'zbek tilida to'g'ridan to'g'ri “ko'zalarda yomg'ir yog'yabdi” deya tarjima qilinadi. Albatta ularda ham bu iboraning kelib chiqishida ko'zaning aloqasi bo'lishi tabiiy. Tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, chelak o'rnida ko'zalar ishlatilganini anglashimiz mumkin va bu iboraning o'zbek tilidagi ekvivalentini “chelaklab yomg'ir yog'yabdi” deya ta'kidlashimiz mumkin. Va xuddi ispanlar kabi, juda ko'p yomg'ir yog'ishini chelakdan suv quyganga o'xshatganimiz uchun ushbu ibora paydo bo'lgan deya olamiz.
5. **Emosional va konnotativ farqlar.** Idiomalar ko'pincha tarjimada yo'qolishi mumkin bo'lgan o'ziga xos hissiy ohanglar yoki konnotatsiyalarni o'z ichiga oladi. Bir tilda kulgili, istehzoli yoki mehrlil ibora boshqa tilda bir xil ta'sir ko'rsatmasligi mumkin. Ispancha “no tener pelos en la lengua” (tilda tuklar yo'q) biror kimni xafa qilsa ham rost gapni gapirishni anglatadi, agar ingliz yoki o'zbek tiliga to'g'ridan-to'g'ri tarjima

qilinadigan bo'lsa, bir xil ma'noni bildirmasligi mumkin. Tilda tuklar bo'lmasligini barchamiz bilamiz, ammo agar bo'lgan taqdirda ham bu judayam noqulay vaziyat bo'lardi, to'g'rimi? Shu sababli ham ushbu noqulaylikni yo'qotish uchun ispanlar "no tener pelos en la lengua" iborasini ishlatishadi. Ingliz tilida yuqoridagi ma'noni beruvchi "straightforward" so'zi mavjud bo'lib o'zbek tiliga "to'gridan to'g'ri", "halol" deya tarjima qilinadi. Ammo uni "no tener pelos en la lengua" ga ekvivalent deb ololmaymiz. Sababi bunda hissiy ohang yo'qoladi va kutilgandek tarjima chiqmasligi mumkin. O'zbek tilida bu iboraga ekvivalent bo'la oluvchi bir nechta iboralar mavjud. Ularga "Yuziga aytmoq", "betiga aytmoq", "yuzing-ko'zing demay gapirmoq" kabilarni misol qilishimiz mumkin. Ammo bunda to'gridan to'g'ri ifoda va ma'no bir hil emas va bunda hissiy va konnotativ ohang ham o'zgarib ketadi.

Xulosa qilib aytganda, Ispan va ingliz tillaridan o'zbek tiliga frazeologizmlarni tarjima qilish til va madaniyat o'rtasidagi murakkab munosabatni ochib beradi. Madaniy, tarixiy va lingvistik farqlar idiomatik iboralarning mohiyati va ta'sirini saqlab qolish uchun ijodiy va moslashtirilgan yondashuvlarni talab qiladi. Tarjimonlar ko'zlangan ma'noni yetkazish uchun ko'pincha tavsifiy tarjimalarga yoki butunlay yangi iboralarga tayanishi mumkin, bu esa muqarrar ravishda asl frazeologiyaning boyligi va madaniy o'ziga xosligini yo'qotadi. Ushbu muammolarni tushunish til tarjimasida madaniy kontekstning muhimligini va idiomatik iboralarning asl mohiyatini qamrab olishning nozik san'atini e'tirof etadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Abdurasulova G. X., Beknazarova S. B. Idiomalarning tarjima va ekvivalentligi muammolari. // Filologiya fanlari. - 2017. - No 2. - B. 42-47.
2. Baurjanova A. M., Editarova N. A. Tarjimada idiomalarning ekvivalentligi muammolari. // Tilshunoslik va adabiy ijod. - 2018. - No 3. - B. 43-47.
3. Krivchun I. V., Minchenko O. V. Ingliz tilidagi idiomalarni tarjima qilish muammolari. // Xorijiy hamkorlar bilan shahar aloqalari. - 2017. - No 4. - B. 121-127.
4. Murzin I. N., Loginov A. O. Og'zaki tarjimada idiomalarni tarjima qilish muammolari. // N.I. Lobachevskiy. - 2016. - No 1. - B. 95-98.
5. Narmatova G. X., Tursunova X. K. Idiomalarni o'zbek tilidan rus tiliga tarjima qilish muammolari. // Farg'ona politexnika instituti axborotnomasi. - 2015. -T. 4, No 4. - B. 157-160.
6. Smirnova G. A., Kudelskaya E. N. Idiomalarning ekvivalentligi tarjima va izohlash muammosi sifatida. // - 2014. - T. 3, No 16. - B. 92-9
7. Usmonova Z. K., Usmonov L. Z. Ingliz tilidan o'zbek tiliga tarjimada idiomalarning ekvivalentlik muammolari. // Xalqaro munosabatlar instituti axborotnomasi. - 2018. - T. 14, No 3. - B. 116-124.